

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN HOLDA TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14516261>

Davlatova Sevara Normamat qizi

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) 1- bosqich magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etishning ahamiyati, ayrim talab va shartlari yoritilgan, integratsion darslarning umumiy xususiyatlari atroflicha bayon etilgan. Shuningdek, integratsion darslarning umumiy mundarijasidan kelib chiqqan holda, bu turdagi dars loyihasiga doir mashg'ulotlar strukturasi hamda integratsion texnologiyani tasniflangan.

Kalit So'Zlar

integratsion, kompetentlik, klassifikatsiya, xarakterli, texnokratik, noan'anaviy, ko'rgazma, faktor.

Аннотация

В данной статье подчеркивается важность организации элементарных занятий интегрированным способом, выделяются некоторые требования и условия, подробно описываются общие особенности интегрированных занятий. Также на основе общего содержания интегрированных уроков классифицируются структура обучения и интегрированная технология данного типа урок-проекта.

Ключевые Слова

интегративный, компетентность, классификация, характеристика, технократический, нетрадиционный, выставочный, фактор.

Abstract

This article emphasizes the importance of organizing elementary classes in an integrated way, identifies some requirements and conditions, and describes in detail the general features of integrated classes. Also, based on the general content of integrated lessons, the structure of training and integrated technology of this type of lesson project are classified.

Keywords

integrative, competence, classification, characteristics, technocratic, non-traditional, exhibition, factor.

Mamlakatimizda mustaqillik yillaridan buyon kadrlar tayyorlash va ta'limni tashkil etish jahon standartlariga javob beradigan samarali tizimi yaratildi hamda bugungi kunda ham oliy ta'limni modernizatsiyalashga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimida yanada rivojlanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini yanada kengaytirish chora tadbirlarlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori, 2017-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori qabul qilindi. Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o'z ishini puxta biladigan, malakali hamda har bir bolaga individual yondashadigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'daklardan fikr va tafakkurni to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlaganlar.[1]. Zamonaviy boshlang'ich sinf o'qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang'ich ta'limning integrativ xarakterini, o'zini bo'lajak kasbiy faoliyati integrativ yo'nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgandagina bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligi samarali bo'ladi. I.G.Pestalossi katta didaktik material asosida o'quv fanlarini turli yo'nalishdagi o'zaro bog'liqliklarini yoritib berdi. Bunda esa quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- shaxsning o'z qadr- qimmatini anglashi;
- bolani tabiat ato etgan qobiliyat va imkoniyat asosida tarbiyalash;
- bolani har tomonlama tarbiya etishga qaratilgan ko'rgazmalilik[2].

U bir fanning ikkinchi fandan ajratib olinishidagi alohida noo`rin jihatlarini ham asoslab beradi. O'z davrida Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy singari mashhur G'arbning ilg'or pedagoglari ma'lum muddat ta'lim tizimida ustuvor o'ringa ega bo'lgan suhbatga asoslangan metodlarni keskin qoralaydilar va bu metodlarning

mutloqligini inkor etdilar. Ular o'z qarashlarida tajribalari bilan bu metodlarni amaliy hamda ko'rgazmali metodlar bilan to'ldirish shartligini isbotlashga harakat qiladilar [3].

Bugungi kunga kelib esa, an'anaviy o'qitish usullar bilan yondashuvlar asta-sekin o'z o'rnini shaxsga yo'naltirilgan ta'limga bo'shatib bermoqda. Bu kabi o'zgarishlar ta'lim jarayonini zamonaviy talab va ehtiyojlarga moslashuvchan bo'lishini ta'minlash uchun lozimdir. Shu nuqtai nazardan, XX asrning oxiri texnokratik taraqqiyotlar yuqori nuqtasiga yetib, gumanitar madaniyat va qadriyatlar asosidagi yangicha yondashuvlarga yo'l ochdi. Bu davrda kuch va qo'rquv asosidagi avtoritar yondashuv o'z o'rnini ong va muhabbat falsafasiga, inson qadr-qimmatini e'zozlash tamoyillariga bo'shatib berdi. XXI asr o'zining strategik maqsadlarini aynan mana shular asosida shakllantirdi.[4].

Mazkur o'zgarishlarda ta'lim-tarbiya tizimi ham chuqur islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Endilikda ta'lim jamiyat ehtiyojlariga mos bo'lishi, inson omilini e'tiborida tutishi va shaxs rivojiga xizmat qilishi zarur. Shu nuqtada noan'anaviy o'qitish shakllari, xususan, fanlararo integratsiya masalasi muhim o'rin egallaydi. Integratsiya nafaqat ta'lim jarayonini yanada samarali va mazmunli qilishga, balki o'quvchilardagi hayotiy ko'nikma va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Integratsiyaning darajasi va uning qo'llanilish texnologiyalarini to'g'ri belgilash orqali ta'lim samaradorligining oshishi, kelajakdagi o'quv texnologiyalarining istiqbolini aniqlashini imkoni bo'ladi. Misol uchun, matematika va tabiiy fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish va hal etish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Shu bilan birga, adabiyot va tarix fanlari o'zaro integratsiyalashgan holda insoniyatning madaniy merosi haqida chuqurroq bilim beradi deb ayta olamiz.

Integratsion yondashuvning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

Holistik bilim shakllanishi: o'quvchilar turli fanlar o'rtasidagi aloqadorlikni anglab, bilimlarni kengroq ko'lamda qabul qiladi.

Ijodkorlikni rivojlantirishi: integratsiya o'quvchilarda ijodiy va innovatsion yondashuvlarni shakllantiradi.

Amaliy ko'nikmalar: turli yo'nalishlar bo'yicha birgalikda ishlash orqali o'quvchilar hayotiy va kasbiy vaziyatlarda foydali bo'ladigan ko'nikmalarga ega bo'ladilar.[3]

Ta'lim jarayonida noan'anaviy yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa integratsiyaga asoslangan o'qitish usullarini keng qo'llashimiz XXI asr ta'lim tizimining asosiy strategik yo'nalishi sifatida e'tirof etilishi zarur. Bu jarayon ta'limning insonparvarlik asoslariga mos kelishini va jamiyatning zamonaviy

ehtiyojlariga javob berishini ta'minlaydi. Zero, integratsiya yetarlicha namoyon bo'la olgan, turli xarakterli mazmunning singdirilishi natijasida yangi sifat va holatga o'tishda asosiy omil bo'lib yuzaga chiqa oluvchi faktor hisoblanadi. Integratsiya chuqur, noan'anaviy ta'lim bilan tavsiflana oluvchi, turfa hil xarakterdagi katta hajmli o'quv materialining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi. Integrativ ta'limni yo'lga qo'yishdan oldin, uning tasnifi integrativ ta'limning sinflarga bo'linishi (klassifikatsiya) borasida ma'lum tushuncha hosil qilish lozim bo'ladi.[5].

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o'zlashtirishi hamda olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o'rnatishi ta'limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosdir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko'p marta qaytishi, ularning chuqurlashtirishi hamda boyitish, shu yoshga tushunarli bo'lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Tarkibiga shu o'quv predmetiga tegishli bo'lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin bo'ladi. Fanlararo bog'liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o'quvchiga integratsion mashg'ulotlarni taqdim etmasligi to'g'ri bo'ladi, anglamagan integratsiya o'quvchi ongidagi bilish darajasini va jarayonini mavhum holatga, olib keladi bu orqali chalkash xulosalarga yo'l qo'yadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolipova J, Numonova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogic texnologiya «Xalq ta'limi» jurnali, 3-son.
2. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: O'zRFA «Fan» nashr., 2000.
3. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. - Qarshi: «Nasaf», 2003.
4. Asqar Zunnunov. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Aloqachi»,2006.
5. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika.-T.: «Yangi avlod asri» 2003.